

FIZIKA FANINI O'QITISHDAGI MUAMMOLARGA YECHIM IZLASH

*Qurbanova Nurixon A'zamjon qizi
TATU FF akademik litseyi fizika fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10371047>

Annotatsiya – Ushbu maqolada fizika fani ta'limida dolzarb muammolarga yechim izlash mexanizmlari haqida ilmiy fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: muammo, munozara, mavzu, hayot fan, ta'lim, fizika, innovatsiya, labaratoriya, usul, mashg'ulot, faoliyat, dasturiy ta'minot.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida amal qilinayotgan ta'lim to'g'risidagi qonunlarda ta'lim tizimini isloh qilish vazifasi belgilanib, barcha ta'lim muassasalariga fanlarning o'qitilishini zamonaviylik, insonparvarlik, beriladigan bilimlar ko'larni hayotiy jarayonlar bilan ta'minlash, buning uchun o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash kabi talablar qo'yilgan. Hozirgi paytda fizika ta'limiga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini jadal tadbiq etish pedagogik-uslubiy g'oyaga aylangan. Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga kirib kelishi ayniqsa fizika fanini o'qitishda yangi turdag'i mashg'ulot turlarining (fizik model bilan tanishuv, kompyuterda tajriba o'tkazish, eksperimental masalalar yechish, tadqiqot olib borish, ijodiy topshiriq) vujudga keltirishga sabab bo'ldi. Bular orasida fizika ta'limini asosiy muammolaridan biri laboratoriyalarning virtual stendlarini yaratish, fizik jarayonlarni modellashtirish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir XXI asrda kompyuterlashtirish yuqori cho'qqilarni egallagan bir vaqtida, fanlarni kompyuter dasturlari orqali o'qitishni davr talab qilmoqda.

O'quv jarayoniga kompyuterlashtirish katta jadallik bilan kirib kelmoqda. Kompyuter dasturlari orqali fizik tajribalarni, effektlarni va hodisalarini namoyish qilish mumkin. Kompyuterdan bilim berishda, olgan bilimlarni nazorat qilishda, fizikadan masalalar yechishda va laboratoriyyada keng foydalanish mumkin. An'anaviy laboratoriya sharoitida yuqori aniqlikda natija beruvchi qurilmalar bo'limganligi uchun, fizik tajriba va effektlar og'zaki tushuntiriladi, ularni namoyish qilish imkoniyati deyarli yo'q. Faqat zamonaviy kompyuterlar orqaligina bunday jarayonlarni kuzatish mumkin. Turli xil fizik qonuniyatlarni o'rgatuvchi, parametrlar o'rtasidagi bog'lanishni o'rnatuvchi, grafiklarni chizuvchi, fizik jarayonlarining tabiatda ro'y berishiga yaqin tarzda amalga oshiruvchi kompyuter dasturlari keyingi vaqtida ko'plab tuzilmoqda. Bunday dasturlardan fizika fanini o'qitishda ham foydalanib kelinmoqda.

Keyingi vaqtida o'qitishni yanada takomillashtirish uchun elektron darsliklar yaratish yo'lga qo'yilmoqda. Bundan o'qituvchilar yaxshi foydalanishlari mumkin. Bu o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham juda qulay bo'lib, xoxlagan mavzuni kompyuter orqali o'rganib, kerakli savollarga javoblar ham olish mumkin. Bu elektron darsliklarning eng qulay tomoni olisdan turib boshqarishga imkon beradi. Fizikani ko'rgazmali o'qitish

metodologiyasi-bu darsning tuzilish shakllari va tashkil etishusullari, shuningdek, fizika o'qitish nazariyasining rivojlanishi qonunlari va uning natijalari amalga tadbiq etish prinsiplari haqidagi ta'limotlari. Fizikani ko'rgazmali o'qitish metodologiyasi boshqa fanlar singari maxsus tekshirish metodlariga ega. Chunonchi: -o'rta ta'limi umumiy masalalarini tahlili va ularni hal etishda fizikaning o'quv predmeti sifatidagi rolini aniqlash; -ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish va umumlashtirish; -fizik ta'lim va pedagogik amaliy masalalarini qiyosiy tahlili; -o'quvchilar psixologiyasining o'ziga xosligini va fizikani ko'rgazmali o'qitish jarayonining tahlili; -o'quvchilar psixologiyasining o'ziga xosligini va fizika o'qitish jarayonining tahlili; -fizika o'qitish tarixini tahlil etish asosida fizika metodikasi rivojlanishining ob'yektiv tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash; -dasturni, darsliklarini qo'llanmalarini litsey o'quvchilarining bilimlarini tekshirish natijalarini va hokazolarini qiyosiy tahlil qilish asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda fizikani ko'rgazmali o'qitish metodikasi rivojlanishning ob'yektiv tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash shu asosida gipotezalar qo'yish va ularni eksperimental tekshirish.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha va yordamchi vositalar kiradi. Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin: o'rgatuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi; test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi; mashq qildirgichlar – avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi; o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Xulosa qilib aytganda, fan-texnika taraqqiyoti natijasida, fizika fani izchil rivojlanib borayotgan shu asrimizda biz yangiliklar yaratishimiz kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan o'quv-tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zarurati tug'ildi, yoshlarga umumkasbiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning fan asoslarini chuqr egallashini ta'minlash, ularga kasbiga e'tiqod, mehnatsevarlik, axloqiy soflik kabi xislatlarni shakllantirish, Vatanimizga muhabbat va uning kelajagi uchun o'zining xissasini qo'shishga tayyor turadigan va komil inson ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, shu bilan birga mavzuning insoniyat xayotidagi rolini o'quvchilarga yetkazishdan iborat.

REFERENCES

1. Axmedov M.B., Nazarov E.S. Barkamol insonni shakllantirishda fizika ta'limining imkoniyatlari. Научный журнал «Интернаука» 2020. № 17 (146) Часть 3. С. 72–73.
2. Bespalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989.
3. B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov. Umumiy fizikadan laboratoriya ishlari. T.: Vorisnashriyot, 2007.